
Inson qadri uchun: Bepul tibbiy ko'rik o'tkazildi

2022 yil 13-oktyabr kuni VETERAN Jangchi-faxriy va nogironlari Birlashmasi Rishton tumani bo'linmasi a'zolari va afg'on urushi qatnashchilarining oila a'zolari Rishton tumani Tibbiyot Birlashmasiga qarashli ko'p tarmoqli poliklinikasida tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, ularga zarur dori-darmonlar bepul berildi.

Tibbiy ko'rik oldidan Rishton tuman tibbiyot birlashmasi ko'p tarmoqli poliklinika bosh hakimi D. Hikmatova, mutaxassis vrachlar G. Azimova, R. Ergasheva, S. Alimbabaeva, M. Akbarov, I. Xojimatov, I. O'rinova, M. Kendaev va A. Yahyoxonovlar bo'linma a'zolariga salomatlik borasida zarur tushunchalar berib o'tishdi.

Suhbat chog'ida bo'linma a'zolari o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob oldilar. Tibbiy ko'rik davomida bo'linma kengashi a'zolari va faollar tibbiyot xodimlariga o'z minnatdorchiliklarini bildirdilar.

2022-10-14 13:11:23